

YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA IJTMOIY ISH

*Farg'ona davlat universiteti
talabasi Suyumova Marxabo*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar uchun yangilanayotga zamonaviy texnologiyalar va yoshlar siyosatini yanada rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlar shuningdek, prizidentimiz tomonidan yoshlarimizga qaratilgan, farmon va farmoyshlar haqida va ularni yanada rivojlantirish maqsadida olib boriladigan choralar haqida keng ma'lumotlar berilib o'tilgan.

Abstract: In this article, measures for the further development of modern technologies and youth policy for young people, as well as detailed information about the decrees and orders aimed at our youth and the measures to be taken for their further development by our president, have been given.

Аннотация: В данной статье изложены меры по дальнейшему развитию современных технологий и молодежной политики для молодежи, а также подробная информация об указах и распоряжениях, направленных на нашу молодежь, и мерах, которые должен принять наш президент для ее дальнейшего развития. было дано.

Kalit so'zlar: Yoshlar, mas'uliyat, imkoniyat, ittifoq, burch, erkinlik, fuqarolik, kafolat, qonun, yoshlar

Keywords: Youth, responsibility, opportunity, alliance, duty, freedom, citizenship, guarantee, law, youth

Ключевые слова: Молодежь, ответственность, возможность, союз, долг, свобода, гражданство, гарантия, закон, молодежь.

Yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratligini aytib o'tish va siz aziz yoshlarga muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlarimiz, huquq va burchlarimiz erkinlik va fuqarolik mas'uliyatimizni eslatib o'tishni maqsad qilganmiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi —Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini qo'llabquvvatlash to'g'risidagi PF-5106-sonli farmoni va 2017 yil 18 iyuldagi —O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ3138-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasida Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkiloti tashkil qilindi. Yoshlar

ittifoqining boshlang'ich tashkiloti o'z faoliyatida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish borasida O'zbekiston Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shartsharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xaqqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi.

O'zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” deb ta'kidlagan edi. Ta'kidlash joizki, Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati ham aynan yoshlar masalasi bilan bog'liq bo'lgan, 2016 yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun edi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish;

- yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasbhunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish;

- iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish;

- yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish;

Barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularni tarbiyalash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi yurtimizda o'rnak olsa arzigulik tajriba to'planishiga imkon berdi. Shu o'rinda ta'ldlash joizki, iste'dodli yoshlarni izlash va ularni qo'llabquvvatlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda yurtimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqdalar. Masalan, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi ayniqsa, ahamiyatga molikdir.

Ta'kidlash joizki, ta'lim, fan, texnika, axborot texnologiyalari, madaniyat, san'at, sport, tadbirkorli sohalaridagi iste'dodli va iqtidorli yoshlarni rahbatlantirib borish, ularning turli sog'lom tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash vazifalari bu tashkilotning mazkur yo'nalishdagi dolzarb vazifalaridan biri qilib belgilangan. Yoshlarning bilim darajasi, kasbiy malakasi, ma'naviy va ruhiy barkamollik kabi fazilatlar va ijtimoiy sifatlari butun jamiyatning rivojlanish darajasiga salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda. Aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo'lib yashashga erishish bugungi zamonaviy davlatchilik taraqqiyotidagi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Alloma Abdulla Avloniy "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur?" degan savolga "Birinchil - uy tarbiyasi. Bu vazifa ona zimmasidadir. Ikkinchi - maktab va madrasa tarbiyasi.

Ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir" deb javob berganlar. Bu so'zlar zamirida barchaning farzand tarbiyasiga mas'ulligi ko'rinib turibdi. Yoshlar masalasini o'rganish kishilik jamiyati, ijtimoiy munosabatlar, millatlar va davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki yoshlar masalasi, birinchidan, sivilizatsiya vujudga kelgandan beri mavjud va barcha tarixiy rivojlanish bosqichlarida ular bilan yonmayon keladi. Ikkinchidan, tafakkur tarixida barcha faylasuflar, mutafakkirlar, davlat arboblari, shoiru adiblar farzand, yoshlar masalasiga oid o'z qarashlarini bayon qilganlar. Ota-ona va farzand, ustozu- shogird o'rtasida Sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi. Avvalo bunday fikr yuritishning o'zi bobolarning

ma'naviy darajasi naqadar yuksak bo'lganligini va albatta bunday fikr aytish bu borada ko'p asrlik me'roslarni o'rganish natijasida vujudga kelishini ta'kidlash joiz.

XULOSA Davlatning qudratini belgilaydigan qator omillardan biri, shubhasiz, ma'nan yetuk, jismonan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Shu ma'noda, bugungi kunda mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash naqadar muhim, mas'uliyatli vazifa ekani barchamizga ayon. Yoshlarga, bolalarga e'tibor, darhaqiqat, kelajakka qo'yilgan sarmoyadir. Vaholanki, kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish farzandlarimizning faol ishtiroki, qo'llab-quvvatlashi orqaligina to'laqonli amalga oshar ekan, ma'naviyati yuksak, chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan o'g'il-qizlarni tarbiyalash buyuk kelajagimizni ham ta'minlashiga shubha yo'q. Biz ajdodlarimiz Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar bo'lganligi, shuningdek, ularning asarlari jahon fani va madaniyatida munosib o'rin egallaganligi bilan cheksiz faxrlanishga haqlimiz. Shu bilan birga bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz insoniyat tomonidan to'plangan eng ilg'or bilim va tajribalar bilan hamohanglikda rivojlanishini xohlaymiz. Aynan shunday qarash va yondashuv bizni doimo oldinga harakat qilishimiz uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun / <https://lex.uz/docs/3026246> Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 1027 w October 2021 www.oriens.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkatmirziyeevbmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston yoshlari forumidagi ma'ruzasi // https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-proceedings-of-international-conference-on-scientific-research-in-natural-and-social-sciences-hosted-online-from-toronto-canada-date-5-th-november-2022-issn-xxxx-xxxx-website-econferenceseries.com-22-page-prezidentishavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagannutqi_197662
4. Juraev S.A. Osobennosti formirovaniya gosudarstvennoy molodejnoj politiki Respubliki Uzbekistan v perexodniy period: teoriya i praktika. Ar.diss...dok.politol.n..-T., 1994. -S.17.

5. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 2(11), 985-991.
6. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, 2(9), 309-314.
7. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 535-542.
8. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B3), 40-46.
9. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, 14(3), 33-36.
10. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 4(1), 52-59.
11. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
12. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
13. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.